

## MINIATYURA SANATIDA KOMPOZITSIYA ASOSLARI

**Baymurzayeva Oyqaram Shodiyevna**

*Jizzax Davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"  
kafedrasi katta o'qituvchisi, Jizzax.O'zbekiston.  
e-mail:baymurzayeva77@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada miniatyura kompozitsiyasi asoslari, uning yangi, zamonaviy kompozitsiya yaratishdagi o'ziga xos qonuniyatlarga amal qilinishi haqida yoritilgan*

**Kalit so'zlar:** *joylashtirish, marom, nisbat, mutanosiblik, nozik farqlanish.*

\*\*\*

### **Основы композиции в миниатюре**

**Аннотация:** *В данной статье описаны основы миниатюрной композиции, ее применение к конкретным законам создания новой, современной композиции.*

**Ключевые слова:** *размещение, ритм, пропорция, пропорция, тонкая дифференциация.*

\*\*\*

### **Fundamentals of composition in miniature art**

**Annotation:** *This article describes the basics of miniature composition, its application to the specific laws of creating a new, modern composition*

**Key words:** *placement, rhythm, proportion, proportion, subtle differentiation.*

Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'zbek xalqi o'zligini taniy boshladi. Uning uzoq va boy tarixi, madaniyati o'rganila boshlandi.

O'zbek diyori jaxonning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lgani isbotlandi.

Noyob durdonalarimiz bo'lgan nomoddiy madaniy merosimizni saqlash va davom ettirish bizning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoevning 2018-yil 28-noyabr PQ-4038-son „O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantrish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Qarorida 2019-2020-yillar davomida O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish va amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqildi . Bunga ko'ra mamlakatimizda san'atni rivojlantirish borasida turli xil festivallar, chet ellarda ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, san'at xodimlari bilan davra suxbatlari, muloqotlar o'tkazish belgilab berildi.

Madaniy merosimiz bo'lgan san'at turlari ichida eng nafis, eng mo'jaz dekorativ san'at, bu miniatyura san'ati hisoblanadi.

Bu san'at turi ko'p asrlar davomida mavjud bo'lishiga qaramay, o'tmish va hozirgi zamon o'rtasida ko'prik bo'lib, rivojlanishda davom etmoqda.

Miniatyura san'ati O'rta asr qo'lyozma kitoblarida illyustratsiya sifatida sharq mamlakatlarida keng tarqalgan kichik rangli rasmlardir. U kitob betlarini bezash va jildlash bilan birga muhim dekorativ element hisoblangan.

Miniatyurada, avvalambor, yozuvning nozikligi, dekorativligi va asardagi syujet talqini yuqori baholangan.

Miniatyura kompozitsiyasini ishlashda g'oya, joylashtirish, simmetriya va assimetriya, marom, nisbat, mutanosiblik, nozik farqlanish, stilizatsiya, keskin farq qoidalariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

-Joylashtirish — chizish kerak bo'lgan shakl yoki tasvirni yuzaga to'g'ri joylashtirishdir. Kompozitsiyada joylashtirish barcha mutaxassislik va soxalar uchun katta ahamiyatga ega. Musavvir o'zi chizmoqchi bo'lgan loyihani yuzaga togri joylashtira olishi lozim.

- Simmetriya — grekcha so'z bo'lib o'lchovlarning bir-biriga munosibligini bildiradi. Shaklning simmetriya markazi, oqi yoki tekisligiga nisbatan bir xil joylashishi simmetriya deb ataladi.

-Assimmetriya-simmetriyaning aksi va buzilishidir. Kompozitsiya assimetriya asosiga qurilgan bo'lsa, unda asosiy qoidaga ko'ra simmetriya emasdir, agar aksincha kompozitsiya simmetriya qoidalariga qanchalik rioya qilsa, assimmetriya bo'lmaydi.

- Marom olchamlari mos bo'lgan unsurlarning qonuniy ravishda ma'lum masofada takrorlanishi va ketma-ket kelishidir.

- Nisbat keng ma'noda noma'lum bir kattalikni boshqa ma'lum kattalikka nisbatlash orqali topish imkonini beradigan munosabatdir.

- Kompozitsiyalar tuzishda mutanosiblik uslublarining qollanilishi muqim aqamiyat kasb etadi. Shaklning ikki unsuri qismning o'zaro olchamli munosabati mutanosiblik deyiladi. Amalda qollaniladigan qonuniy munosabatlar ikki guruxga bo'linadi, sodda ratsional sonlar orqali tuzilgan sodda munosabat, irratsional munosabatlar — geometrik qurilmalar qosillari orqali. Sodda munosabatlarda ikkita kattalikning sonli boqlikligi kasr son sifatida ifodalanadi. Bunda surat va maxraj odatda 1 dan 6 gacha bo'lgan butun sonlar bilan ifodalanadi.

-Solishtirilayotgan jismlarning katta-kichikligi, tasviri, rangi, qajmi, joylashishi, tashqi ko'rinishidagi yaqin xususiyatlar nozik farqlanish deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish imkonini beradi. Nozik farqlanish ko'zning bir qator takroriy qarakatidan iborat ancha

murakkab solishtirish jarayonidir. 1:1 munosabatga sodda geometrik shakllar kvadrat, kublar t oqri keladi. 1:2, 1:3, 1:4, 1:5, 1:6 munosabatlar t oqri burchakli shaklda kvadratning butun son marta kamaytirilishini beradi. 2:3, 2:4, 2:5, 2:6 munosabatlar qar bir geometrik shaklga butun son marta tushadigan modulni o'z ichiga oladi.

-Solishtirilayotgan jismlarning katta-kichikligi, tasviri, rangi, qajmi, joylashishi, tashqi k orinishidagi yaqin xususiyatlar nozik farqlanish deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish imkonini beradi. Nozik farqlanish k o'zning bir qator takroriy qarakatidan iborat ancha murakkab solishtirish jarayonidir.

-Stilizatsiya tabiatdagi osimlik, qayvonot va boshqa narsalarning tasviri, rangi, shakli, va tuzilishi badiiy usulda umumlashtirish ya'ni ramziylashtirishdir.

-Kompozisiyada kontrast (keskin farq) mahsulot bo'laklari xususiyatini muqobillashtiruvchi vosita bo'lib, tarkiblar badiiy qimmatini funksional mosligiga ta'sir qiluvchi shartiga ko'ra yuzaga keladi. Kontrast solishtirishning soddaroq, keskin farqlarni, tashqi ko'rinishdagi o'ziga xos belgilarni aniqlaydi. Kontrast xususiyatlarini baholashda buyumlarni solishtirish jarayonida kattaligi, shakl joylashish va boshqalar ko'rinishiga ko'ra tasvirlanadigan shakl o'rnida taqdim qilinishi mumkin. Solishtirish jarayonida ayrim o'lchamida kontrast ko'z harakati bilan aniqlanib, to'g'ri chiziqqa yaqini, maydoniga ko'ra solishtirishda hajmi, umumiy farqlovchi natija bo'lib aniqlanadi. Birinchi navbatda, tasvirning umumlovchi natijasi bo'lib yuzaga keladi. Shakllarni aniqlash kontrastli munosabatni baholashda tasvir chiziqlarini nigoh bilan solishtirish natijasi ta'sir etadi, rang farqini ajratish tanlangan joy xususiyatiga ko'ra ajrim bo'ladi. Farqlanish munosabatlari tashqi ehtiyojlarning barcha belgilariga ko'ra solishtirilganda birinchi taassurot boshqa munosabatlardan farq qiladi. Kontrast belgisi yorug'lik ko'zimizga tushishi bilan aniqlanadi. Qiyoslanuvchi ranglar yoritilgandan so'ng, elektor uchquni yorug'ligi ta'siri natijasida seziladi. Jilo buyumlarning tashqi ko'rinishi va kattaligi yaxshi xususiyatlaridan biridir, va rangi, chizmatasvir, jussasi joylanishidan yuzaga keladi. Bir xil zaruratli buyumlarni bilishda ko'pincha qo'l keladi. Jilo-solishtirishning murakkablashgan jarayoni bo'lib, ko'zning bir qator harakatlaridan tashkil topadi. Kattalikning jiloli xususiyati shakli, yuzi ko'z harakatlari umumiysidan yuzaga kelgan arzimagan farqlar bilan farq qiladi. Ranglar orqali jilolash, arzimagan qo'zg'atishlar orqali ham xis etiladi. Murakkabroq jiloli shakllar yuzaga kelishi, shu jumladan, o'mashganligi va uning qurilishidagi egallangan o'rni ham yuzaga keladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. M. SH. Mirziyoev. 2018-yil 28 noyabr PQ-4038-son O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantrish konsepsiyasi to‘g‘risidagi Qarori.
2. Shobaratov P.MiniatyuraT. “Tafakkur”nashriyoti 2011
3. Shobaratov P.MiniatyuraT. “Iqtisod-moliya”nashriyoti 2011